



UDK: 342.553(571.1)

**Husan ABUYEV,**  
*PhD, dotsent, Navoiy davlat universiteti, Navoiy, O‘zbekiston*  
E-mail: [husan24@mail.ru](mailto:husan24@mail.ru),

*T.f.d J.Savriyev taqrizi asosida*

## O‘ZBEKISTON SSRDA DEMOGRAFIK O‘ZGARISHLAR VA IJTIMOY HOLAT (XX ASR 80-YILLAR VA 90 YILLARI BOSHI)

Аннотация

Ushbu maqolada XX asr 80-yillarida O‘zbekiston SSRdagi demografik holat, aholi takror ishlab chiqarilishiga ta’sir etgan omillar, tug‘ilish va bolalar o‘limi dinamikasi, oila va nikoh munosabatlaridagi o‘zgarishlar, mehnat resurslari, urbanizatsiya, ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy infratuzilma bilan bog‘liq muammolar tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston SSR, demografik holat, tug‘ilish, bolalar o‘limi, mehnat resurslari, urbanizatsiya, ijtimoiy siyosat, qayta qurish, sovet demografik siyosati.

## DEMOGRAPHIC CHANGES AND SOCIAL CONDITIONS IN THE UZBEK SSR (THE 1980S AND THE BEGINNING OF THE 1990S)

Annotation

This article analyzes the demographic situation in the Uzbek SSR during the 1980s, the factors influencing population reproduction, the dynamics of birth rates and child mortality, changes in family and marriage relations, as well as issues related to labor resources, urbanization, education, healthcare, and social infrastructure.

**Key words:** Uzbek SSR, demographic situation, birth rate, child mortality, labor resources, urbanization, social policy, perestroika, Soviet demographic policy.

## ДЕМОГРАФИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ И СОЦИАЛЬНОЕ ПОЛОЖЕНИЕ В УЗБЕКСКОЙ ССР (1980-Е ГОДЫ И НАЧАЛО 1990-Х ГОДОВ)

Аннотация

В данной статье анализируются демографическая ситуация в Узбекской ССР в 1980-е годы, факторы, оказавшие влияние на воспроизводство населения, динамика рождаемости и детской смертности, изменения в семейно-брачных отношениях, а также проблемы, связанные с трудовыми ресурсами, урбанизацией, образованием, здравоохранением и социальной инфраструктурой.

**Ключевые слова:** Узбекская ССР, демографическая ситуация, рождаемость, детская смертность, трудовые ресурсы, урбанизация, социальная политика, перестройка, советская демографическая политика.

**Kirish.** XX asrning 80-yillari O‘zbekiston SSR tarixida demografik, ijtimoiy va siyosiy jarayonlar o‘zaro chambarchas tutashgan davr bo‘ldi. Respublika aholisi son jihatdan tez o‘shib borayotgan, tug‘ilish darajasi ittifoq o‘rtacha ko‘rsatkichlaridan yuqori saqlanayotgan, qishloq aholisi ulushi salmoqli bo‘lgan hudud sifatida SSSRning boshqa respublikalaridan sezilarli darajada farq qilar edi. Biroq bu demografik o‘shish respublika ijtimoiy-iqtisodiy hayotida faqat ijobiy natija keltirmadi. Aksincha, u mehnat resurslari ortiqchaligi, ish bilan ta‘minlash, uy-joy, maktab, bolalar muassasalari, tibbiy xizmat va shahar infratuzilmasiga nisbatan bosimni kuchaytirdi.

**Manbalar va metodologiya.** Maqolada qiyosiy-tarixiy, tizimli, statistik va tarixshunoslik tahlili usullaridan foydalanildi. Manbalarining asosiy qismini SSSR va O‘zbekiston SSR davlat statistik to‘plamlari — «Naseleniye SSSR, 1987», «Naseleniye SSSR. 1988», «Narodnoye xozyaystvo SSSR v 1990 g.», «Narodnoye xozyaystvo Uzbekskoy SSR v 1989 g.», «Narodnoye xozyaystvo Uzbekskoy SSR v 1990 g.» kabi nashrlar tashkil etadi. Shu bilan birga, 1989 yilgi Butunittifoq aholi ro‘yxati natijalari, arxiv fondlari, partiya va davlat qarorlari ham muhim manba bo‘lib xizmat qildi.

Xorijiy tarixshunoslikda Miye Nakachi, Wolfgang Luts, Sergey SHerbov, Andrey Volkov, Jessika Lovett, Magali Barberi, Barbara Anderson, Brayan Silver, Nensi Lubin va boshqa mualliflar ishlari alohida ahamiyatga ega[1]. Ularning

tadqiqotlarida SSSRdagi demografik siyosat, tug‘ilish va reproduktiv xulq-atvor, Markaziy Osiyodagi yuqori tabiiy o‘shish, bolalar o‘limi va demografik statistikaning murakkabligi kabi masalalar yoritilgan. Mahalliy tadqiqotlarda esa D.Bobojonova, Sh.Rahmatullayev, O‘zbekiston tarixi akademik nashrlari hamda arxiv hujjatlari muhim o‘rin tutadi[2].

Tarixshunoslik va manbashunoslik. Mavzuni chuqurroq o‘rganishda eng muhim masalalardan biri - sovet demografik statistikasining manbashunoslik xususiyatidir. SSSRda aholi ro‘yxatlari, joriy statistik hisobotlar va sohaviy yilnomalar katta hajmda ma’lumot bergan bo‘lsa-da, ular to‘liq «xolis» emas edi. Ayrim ko‘rsatkichlarni nashr etishda siyosiy ehtiyotkorlik saqlangan, ayrim toifalarning ta’rifi yillar davomida aniqlashtirib borilgan, ba’zi hollarda esa markaziy va respublika nashrlaridagi taqdim usullari bir-biridan farq qilgan[3]. Shu bois 1980-yillar O‘zbekiston SSR demografiyasini o‘rganishda bir manba turiga tayanib qolish emas, balki aholi ro‘yxati, statistik yilnomalar, arxiv hujjatlari, meyoriy qarorlar va davriy matbuot materiallarini o‘zaro solishtirish talab etiladi.

Ayniqsa, bolalar o‘limi, tabiiy o‘shish va migratsiya bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar tahlilida manbalarga tanqidiy yondashuv zarur. Anderson va Silver sovet o‘lim statistikasida qayd etish, tasniflash va qayta hisoblash amaliyoti vaqt o‘tishi bilan o‘zgarганиni ko‘rsatadilar. Demak, respublika va ittifoq darajasidagi ko‘rsatkichlarni mexanik tarzda taqqoslash emas,

balki ularning ortidagi tibbiy infratuzilma, hisob yuritish tartibi va qishloq-shahar farqlarini ham hisobga olish lozim[4]. Bu holat, ayniqsa, O'zbekiston kabi aholisi tez o'sgan va qishloq ulushi yuqori bo'lgan hududlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy tarixshunoslikda ushbu masalaga yondashuv ham sezilarli bo'lgan. 1980-yillar tadqiqotlarida asosiy e'tibor tug'ilish, mehnat resurslari va milliy tarkibdagi o'zgarishlarni «ittifoq miqyosidagi demografik muammo» sifatida baholashga qaratilgan bo'lsa, yangi tadqiqotlarda demografik siyosatning ijtimoiy davlat, gender tartibi, markaz - respublika munosabatlari va milliy xavotirlar bilan bog'liq jihatlari kengroq ochib berilmoqda[5]. Shu ma'noda O'zbekiston SSR tajribasi sovet demografik siyosatining hududiy notekisligi va uning ijtimoiy oqibatlarini yoritish uchun ayniqsa muhim hisoblanadi.

Sovet demografik siyosati va uning umumiy tafsifi.

1980-yillarga kelib O'zbekiston SSR Ittifoqda aholi eng tez o'sgan respublikalardan biri sifatida shakllandi. Sh. Rahmatullayev keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, respublika aholisi 1979-yilda 15 mln 391 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 1991-yilga kelib 20 mln 708 ming kishiga yetdi[6]. Bu o'sishning asosiy manbai tabiiy ko'payish bo'lib, ayniqsa qishloq joylarda tug'ilish darajasi ancha yuqori edi.

Luts, SHerbov va Volkov 1980-yillar boshida SSSR bo'yicha har yili o'rtacha 5,1 mln chaqaloq tug'ilganini ta'kidlaydilar.[7] Biroq respublikalar kesimida tug'ilish darajasi bir xil bo'lmagan. 1989-yilga kelib SSSR bo'yicha har bir oilaga o'rtacha 1,1 nafar bola to'g'ri kelgan; shahar oilalarida bu ko'rsatkich 1 nafar, qishloq oilalarida 1,4 nafarni tashkil etgan. Ayni paytda Markaziy Osiyo respublikalarida bu ko'rsatkich 2,1-3,1 nafargacha yetgan[8]. Ushbu raqamlar O'zbekiston SSRda oila hajmi va reproduktiv xulq-atvor ittifoqning Yevropa qismidagi modeldan jiddiy farq qilganini ko'rsatadi.

Bunday demografik holatning bir nechta sabablari mavjud edi. Birinchidan, qishloq aholisi ulushining yuqoriligi va qishloq turmush tarzining ustuvorligi katta oila institutini iqtisodiy jihatdan ham, madaniy jihatdan ham qo'llab-quvvatladi. Ikkinchidan, diniy-axloqiy qadriyatlar va mahalliy urf-odatlarda farzand ko'rish ijobiy qadriyat sifatida saqlanib qoldi. Uchinchidan, ayollarning mehnat bozorida ishtiroki o'sgan bo'lsa-da, qishloq joylarda uy xo'jaligi va oilaviy reproduktiv strategiyalarning an'anaviy ko'rinishlari saqlandi[9]. Tez tabiiy o'sish respublika aholisining yosh tarkibiga ham bevosita ta'sir ko'rsatdi. 1980-yillarda O'zbekiston SSR aholisi nisbatan "yosh" tarkibga ega bo'lib, bolalar, o'smirlar va mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlar ulushi katta edi. Bu holat nazariy jihatdan katta mehnat salohiyatini anglatganda, amalda maktablar, kasb-hunar muassasalari, oliy ta'lim, turar-joy va ish o'rinlariga nisbatan bosimni kuchaytirdi.

1989-yilgi aholi ro'yxati respublika milliy tarkibida ham muhim o'zgarishlar bo'lib borganini ko'rsatadi. O'zbekiston SSR aholisi tarkibida o'zbeklar mutlaq ko'pchilikni tashkil etar, rus, tojik, qozoq, tatar, koreys va boshqa etnik guruhlar esa shaharlar va sanoat markazlarida sezilarli ulushga ega edi[10]. Demografik vazn nisbatining o'zgarishi til muhiti, shahar madaniyati, kadrlar siyosati va markaz - respublika munosabatlari bilan bog'liq bahslarni kuchaytirdi.

Qishloq aholisi ulushi yuqori bo'lgan hududlarda yuqori tug'ilish yerga, suvga, uy-joy qurilishiga va mahalliy mehnat bozoriga bosimni kuchaytirdi. Feshbax ta'kidlaganidek, Markaziy Osiyo respublikalarida aholi o'sishi faqat statistik yutuq emas, balki uni ish bilan ta'minlash, kasbiy qayta tayyorlash va hududiy mehnat taqsimotiga moslashtirish kabi murakkab masalalarni ham kun tartibiga chiqardi[11]. O'zbekiston SSR sharoitida esa paxtachilikka

yo'naltirilgan iqtisodiy model bu ortib borayotgan mehnat salohiyatini to'liq singdira olmadi.

1980-yillarda O'zbekiston SSRda katta oila an'anasi hali ham kuchli saqlangan bo'lsa-da, oila munosabatlarida o'zgarishlar ham yuz berdi. Urbanizatsiya, uy-joy tanqisligi, maishiy qiyinchiliklar, ayollarning mehnatga jalb etilishi va axborot-ideologik muhitning o'zgarishi ajralishlar soniga ham ta'sir qildi. O'zbekistonda 1980-yilda nikohlangan oilalarning 13 foizi ajralgan bo'lsa, 1986-yilda bu ko'rsatkich 13,4 foiz, 1987-yilda 15,4 foiz, 1988 yilda 15,9 foizni tashkil etgan. 1990-yilga kelib esa bu ko'rsatkich 13,7 foizga tushgan[12]. Bu raqamlar oilaviy munosabatlarda ma'lum darajada beqarorlik ortganini ko'rsatadi.

Demografik o'sish yuqori bo'lgani holda, 1980-yillarda O'zbekiston SSRda bolalar o'limi masalasi ham jiddiy muammo bo'lib qoldi. Arxiv ma'lumotlariga ko'ra, 1985-yilda respublikada bolalar o'limi 45,3% tashkil etgan, SSSR bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich esa 22,7% bo'lgan[13]. Bu tafovut O'zbekistonda onalik va bolalikni muhofaza qilish, sanitariya, ichimlik suvi, tibbiy xizmat sifati va hisobga olish amaliyoti bilan bog'liq chuqur muammolar mavjud bo'lganini anglatadi.

Sovet davrida bepul tibbiy xizmat tizimi rasman katta yutuq sifatida baholangan bo'lsa-da, aholi soni tez o'sib borayotgan O'zbekistonda shifoxonalar, ambulatoriyalar, tug'ruqxonalar va mutaxassis kadrlar bilan ta'minlanganlik ittifoq meyorlariga to'liq mos kelmasdi. 1980-yillar oxiriga kelib sog'liqni saqlash muassasalari yetishmovchiligi ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha 6 foizdan 25 foizgacha borganini ta'kidlangan[14].

Arxiv materiallari bolalikdan nogironlik masalasi ham dolzarb bo'lganini ko'rsatadi. 1980 yil yanvar holatiga ko'ra respublikada bolalikdan nogironlar soni 15013 nafarni tashkil qilgan bo'lib, shundan 3132 nafari I guruh, 11881 nafari II guruh nogironi bo'lgan[15]. Demak, demografik o'sishning sifat jihati - ya'ni inson kapitali, bolalar salomatligi va tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatlari - ham muammoli bo'lgan.

Oliy ta'lim qamrovi ham aholi o'sishi sur'atiga to'liq mos kelmadi. 1989-yilda har ming kishiga 92 talabandan to'g'ri kelgan bo'lsa, qishloq xo'jaligiga ixtisoslashtirilgan o'rta maxsus ta'lim tizimida bu ko'rsatkich 150 nafarni tashkil etgan[16]. Bu respublikada yuqori malakali kadrlar tayyorlash sur'ati demografik bosimni yumshatish darajasida bo'lmaganini ko'rsatadi.

Yozib olingan xotira materiali ham mazkur holatni tasdiqlaydi: Buxoro viloyati Shofirkon tumanida yashovchi Odil Abuyevning eslashicha, farzandini 1980-yilda tibbiyot institutiga o'qishga kirish uchun hujjat topshirishda ish staji va kolxozdan tavsifnoma talab qilingan[17]. Bu misol sovet davrida yoshlarning ijtimoiy qo'llab-quvvatlash formal jihatdan ochiq ko'ringan bo'lsa-da, amalda agrar mehnatga bog'lab qo'yish mexanizmi saqlanganini ko'rsatadi.

Shaharlar sonining ortishi urbanizatsiya sifati ham yuqori bo'lganini anglatmaydi. Aholi soni o'sishi, qishloqdan shaharga harakat va yosh oilalar ulushining kattaligi turar-joyga, transportga, ichimlik suviga, kanalizatsiya, maktab va bog'chalarga bo'lgan talabni keskin oshirdi. Mavjud qurilish sur'ati va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari esa bu talabni to'liq qondirmadi. Natijada shahar muhitida maishiy zichlik, infratuzilma yetishmovchiligi va ijtimoiy xizmatlar tanqisligi kuchaydi.

Demografik o'sishning yana bir muhim, ammo ko'p hollarda yetarlicha yoritilmaydigan jihati - uning kundalik turmush va iste'mol sohasiga ta'siridir. Aholi sonining tez ko'payishi un, go'sht, kiyim-kechak, maktab anjomlari, jamoat transporti, kommunal xizmatlar va maishiy tovarlarga bo'lgan talabni izchil oshirdi. Biroq respublika iqtisodiyotining paxta xomashyosiga yo'naltirilganligi

mahalliy qayta ishlash va iste'mol sanoatining sur'atini cheklab qo'ydi. Natijada demografik o'sish ichki bozor ehtiyojlari bilan ishlab chiqarish tuzilmasi o'rtasidagi nomuvofiqlikni yanada kuchaytirdi[18].

Uy-joy masalasi, ayniqsa, yosh oilalar uchun dolzarb bo'lib qoldi. Shaharlar soni ortgani bilan, urbanizatsiya ko'p hollarda haqiqiy shahar muhiti - barqaror ish o'rinlari, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, bolalar muassasalari va madaniy xizmatlar bilan ta'minlangan yangi makon yaratishdan ko'ra, ma'muriy qayta tasniflash hisobiga kechgan. Shu bois aholi soni o'sib borayotgan sharoitda tor xonadonlar, uzoq navbatlar va katta oilaning bir necha avlodi birga yashashi odatiy holga aylandi[19].

Demografik bosim maktablar, bolalar bog'chalari, poliklinikalar va jamoat xizmatlari tizimida ham yaqqol sezildi. Bir sinfdagi o'quvchilar soni, bir mahalladagi bolalar bog'chasiga navbat, qishloq vrachlik punktlarining yuklanishi yoki avtobus qatnovidagi zichlik demografik jarayonning oddiy aholi uchun bevosita "tajriba qilingan" ko'rinishlari edi. Demak, demografiya bu davrda faqat statistik tablitsalarda emas, balki har kunlik hayotda navbat, tanqislik va infratuzilma bosimi sifatida namoyon bo'lgan[20].

Qayta qurish davriga kelib ana shu kundalik qiyinchiliklar siyosiy ongning o'zgarishiga ham ta'sir ko'rsatdi. Aholi o'sishi bilan bog'liq bosim mahalliy boshqaruv samaradorligi, investitsiya taqsimoti, markazning respublika ehtiyojlariga munosabati haqidagi savollarni kuchaytirdi. Shu bois demografik masala oilaviy-ijtimoiy muammo doirasidan chiqib, adolatli rivojlanish, resurslar

taqsimoti va respublika manfaatlari haqidagi kengroq siyosiy bahslar bilan tutashdi[21].

**Tahlil va natijalar.** 1980-yillar ikkinchi yarmidan boshlab demografik muammo O'zbekiston SSRdagi kengroq ijtimoiy-siyosiy norozilik va islohot talablari bilan hamohang tus oldi. Aholi tez o'smoqda, lekin ish o'rinlari, uy-joy, tibbiy xizmat va ta'lim infratuzilmasi shu sur'atga mos rivojlanmayotgani haqidagi e'tirozlar kuchaydi. Biroq markaziy siyosat ko'p hollarda bu muammolarning sabablarini – paxta yakkaxokimligi, investitsiya siyosatining nomutanosibliigi, mahalliy ehtiyojlarning kam inobatga olinishini — emas, balki "ortiqcha tug'ilish"ni ayblashga moyil bo'ldi.

**Xulosa va taklif.** XX asr 80-yillarida O'zbekiston SSRdagi demografik holat respublika hayotining hal qiluvchi omillaridan biri bo'ldi. Respublika Ittifoqda aholi eng tez o'sgan hududlardan biri sifatida ajralib turar, yuqori tug'ilish, yosh aholi tarkibi, qishloq aholisi ulushining kattaligi va tabiiy o'sishning yuqoriligi bilan xarakterlanar edi. Bu jarayonning shakllanishida urushdan keyingi sovet pronatalistik siyosati, mahalliy qadriyatlar, qishloq turmush tarzi va ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos xususiyatlari muhim rol o'ynadi.

1980-yillardagi demografik holat O'zbekiston SSRdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotni, markaz-respublika munosabatlarini, qayta qurish yillaridagi norozilik kayfiyatini va mustaqillik arafasidagi jarayonlarni tushunish uchun muhim tarixiy kalit vazifasini bajaradi. Demografik o'sish bu davrda bir vaqtning o'zida ham katta inson salohiyatini, ham tuzumiy cheklovlar va ijtimoiy muammolarni namoyon etuvchi omil sifatida yuzaga chiqdi.

#### ADABIYOTLAR

1. Abuev, Kh. O. The beginning of the policy of perestroika in the USSR. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(11), 747-749.
2. Anderson, B. A., & Silver, B. D. (1986). Infant mortality in the Soviet Union: Regional differences and measurement issues. *Population and Development Review*, 12(4), 705-738.
3. Barbieri, M., Blum, A., Dolkigh, E., & Ergashev, A. (1996). Nuptiality, fertility, use of contraception, and family policies in Uzbekistan. *Population Studies*, 50(1), 69-88.
4. Bobojonova, D. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (70-80-yillar misolida). Toshkent: Sharq, 1999.
5. Lovett, J. (2023). "The Fate of the Nation": Population Politics in a Changing Soviet Union (1964-1991). *Nationalities Papers*, 51(4), 888-907.
6. Lubin, N. (1981). Women in Soviet Central Asia: Progress and contradictions. *Soviet Studies*, 33(2), 182-203.
7. Lutz, W., Scherbov, S., & Volkov, A. (1994). *Demographic Trends and Patterns in the Soviet Union Before 1991*. London: Routledge.
8. Nakachi, M. (2021). *Replacing the Dead: The Politics of Reproduction in the Postwar Soviet Union*. New York: Oxford University Press.
9. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1989 г.: Статистический ежегодник. Ташкент: Узбекистон, 1990.
10. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1990 г.: Статистический ежегодник. Ташкент: Узбекистон, 1991.
11. Постановление ЦК КПСС и Совета Министров СССР О мерах по усилению государственной помощи семьям, имеющим детей. 22 января 1981 г.
12. Рахматуллаев, Ш. Узбекистан: особенности социально-демографических процессов в конце XX - начале XXI в. *Россия и мусульманский мир*, 2009, № 8, 90-99.
13. Итоги всесоюзной переписи населения 1989 года. Национальный состав населения Узбекской ССР. Ташкент, 1990.
14. O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi (O'zMA), 837-fond, 41-ro'yxat, 5317-ish.
15. Anderson, B.A., & Silver, B.D. (1989). The changing shape of Soviet mortality, 1958-1985: An evaluation of old and new evidence. *Population Studies*, 43(2), 243-265.
16. Feshbach, M. (1982). The Soviet Union: Population Trends and Dilemmas. *Population Bulletin*, 37(3), 1-44.
17. Malkova, O. (2018). Can maternity benefits have long-term effects on childbearing? Evidence from Soviet Russia. *The Review of Economics and Statistics*, 100(4), 691-703.
18. Weber, C., & Goodman, A. (1981). The demographic policy debate in the USSR. *Population and Development Review*, 7(2), 279-295.
19. Sacks, M. P. Social change and problems of young adults and women in Russia and Uzbekistan. *Nationalities Papers*, 1992, 20(2), 24-35.
20. Затравкин, С.Н., Вишленкова, Е.А., & Чалова, В.В. Состояние и возможности советского здравоохранения в 1960-1980-х годах. *Проблемы социальной гигиены, здравоохранения и истории медицины*, 2021, 29(1).
21. Abuyev Odil bilan suhbat. Buxoro viloyati, Shofirkon tumani, Shibirg'on qishlog'i. Suhbat 2025 yil 16 may kuni yozib olindi.